



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 11-iyul, shanba,
61 (24.241)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ish
buyurdim
olti tozga,
olti toz
qo'ydi yozga

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



TINCHLIK, BAG'RIKENGLIK VA ILM-MA'RIFAT YO'LI SAMARQANDDA TUTASHDI

Samarqandda yurtimizda ilk bor o'tkazilayotgan "I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi: tinchlik, bag'rikenqlik va ilm-ma'rifat yo'li" xalqaro forumi "Imom Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih" asari – Ummat kitobi" mavzusidagi xalqaro konferensiya bilan o'z ishini davom ettirdi.



Anjumanning ochilish marosimi Qur'on tilovati bilan boshlandi. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha maslahatchisi Muzaffar Komilov, Makka shahridagi "Masjid al-Harom" masjidi Bosh imomi Shayx Solih bin Abdulloh bin Humayd, ICESCO Bosh direktori Salim al-Malik, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi raisi Sodiqjon Toshboyev, Kavkaz musulmonlari idorasi raisi Shayxulislam Olloshukur Poshozoda va boshqalar so'zga chiqib, buyuk muhaddis Imom Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih" asari butun Islom olamining eng mo'tabar

tarixiy manbalaridan biri sifatida necha asrlardan buyon barcha mo'min-musulmonlarni to'g'ri yo'lga boshlab kelayotganini ta'kidladilar.

– Buyuk muhaddisning yuksak ilm va ma'naviyat yo'li bilan to'la hayotini, asarlarini o'rganish bugungi va kelgusi avlodlar ta'lim-tarbiyasi uchun g'oyat muhim, – dedi Makka shahridagi "Masjid al-Harom" masjidi Bosh imomi Shayx Solih bin Abdulloh bin Humayd. – Uning ilmiy merosi bir necha asrdan buyon musulmon ummatini to'g'ri yo'lga boshlash bilan birga hayratga solib kelmoqda. Chunki bu zot birinchi bo'lib payg'ambarimizning eng ishonchli hadislarini yig'ib, eng sahih kitob yaratdi. 10

yoshidayoq Qur'on va hadislarini yod olib, ilm yo'lida har qanday sinov va mashaaqatlarni yengib o'tdi. Shuning uchun Imom Buxoriyni o'qib-o'rga-nish, u zotdan ibrat olish yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ma'rifat ruhi bilan tarbiyalashning asosiy omilidir.

Forum dasturiga muvofiq Samarqandda "Imom Moturidiy merosi – islom sivilizatsiyasining mo'tadillik va aql-idrok poydevori" hamda "Islom sivilizatsiyasi va zamonaviy dunyo: meros, muloqot va taraqqiyot" mavzularida ham konferensiyalar tashkil etildi.

Kecha xalqaro forumning yakuniy yalpi majlisida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxolliqov 7-11-iyul kunlari Tosh-

kent, Samarqand va Termiz shaharlarida o'tkazilgan mazkur nufuzli tadbir nafaqat O'zbekiston, balki butun islom olami ilmiy-ma'rifiy hayotida muhim voqea bo'lganini ta'kidladi. Forum davomida 4 ta xalqaro konferensiya, 10 ta yalpi majlis, 15 ta plenar yig'ilish hamda 10 ga yaqin sohaviy shu'ba majlislari o'tkazildi. Bu tadbirlarda islom sivilizatsiyasi tarixi, hadis ilmi, kalom, qo'lyozmashunoslik, muzeysunoslik, arxeologiya, madaniy merosni muhofaza qilish, raqamlashtirish, madaniy diplomatiya hamda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar muhokama qilindi.

Yalpi majlisda forum ishtirokchilari ning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaati o'qib eshittirildi.

Tadbir qatnashchilari Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hadis ilmi maktabi faoliyati bilan tanishib, mazkur maskanlarning islom sivilizatsiyasi ilmiy merosini o'rganish va xalqaro tadqiqotlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini yuqori baholadilar. Imom Buxoriy majmuasidagi ko'rkam masjidda juma namozi ado etildi.

Forum doirasida ishtirokchilar Samarqanddagi boshqa tarixiy-madaniy yodgorliklar, muqaddas qadamjolarini ham ziyorat qildilar.

T.SIDDIQOV,
B.MUSTANOV (surat).

Past Darg'om va Lida tumanlari hamkor bo'ladi

Belarus Respublikasi Minsk shahrida o'tkazilgan Belarus – O'zbekiston uchinchi hududlararo hamkorlik forumi tadbirlarida ishtirok etgan viloyat hokimligi delegatsiyasi Grodno viloyati rahbariyati bilan uchrashdi.



Viloyat hokimi o'rinbosari Xurshidbek Samiyev hamda Grodno viloyati ijroiya qo'mitasi raisi Yuriy Karayev muloqotida hududlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish, ta'lim va turizm sohaslarida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. O'zaro biznes missiyalarini tashkil etish, qo'shma ishlab chiqarish loyihalarini yo'lga qo'yish, mutaxassislar almashinuvini kengaytirish hamda hududlararo sheriklikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashdilar.

Xususan, Past Darg'om va Grodno viloyatining Lida tumanlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish tashabbusi ilgari surildi.

OB –
HAVO

JANUBDAN ISSIQ HAVO OQIMI KIRIB KELMOQDA

O'ZGIDROMETning xabariga ko'ra, joriy yilning 13-17-iyul kunlari O'zbekiston hududiga janubdan issiq havo oqimlari kirib kelishi kutilmoqda.

Havo harorati eng issiq kunlarda respublikaning katta qismida 41-43 darajagacha, shimolda, janubda va cho'l hududlarda 44-46 darajagacha ko'tariladi.

► Prokuror nazorati

Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini tubdan yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Bu islohotlarning samarasi barcha sohalarda qonun talablariga so'zsis rioya etishga, huquqbuzarlik va jinoyatchilik kabi illatning oldini olishga bevosita bog'liqdir.

Albatta, islohotlarning natijadorligini, odamlarning tinch va osuda hayot kechirishlarini ta'minlashda huquq-tartibot idoralarining zimmasida katta mas'uliyat borligini chuqur his qilamiz. Bu borada prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati nafaqat qonunbuzilishlarni bartaraf etish, balki ularning oldini olish, davlat organlari faoliyatini takomillashtirish va aholi farovonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

IJTIMOY SOHADAGI QONUNLAR IJROSI

Viloyat prokuraturasining ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi tomonidan 2026-yilning dastlabki besh oyi davomida amalga oshirilgan ishlar bu yo'nalishda tizimli yondashuv shakllanganini ko'rsatadi. Bu davrda turli sohalarda bo'yicha 34 ta tahliliy axborot Bosh prokuraturaga kiritilib, ularning 21 tasi ijobiy baholanganini erishilgan natijalarning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Ayrim tahlillar esa mamlakat rahbariyati darajasida ko'rib chiqilib, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan ularning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosini

IJTIMOY TARAQQIYOT VA ADOLAT KAFOLATI



ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar aholining kundalik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Oliy ta'lim muassasalari talabalar turarjoylarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar buning yaqqol misolidir. Shu paytgacha viloyatdagi 28 ta talabalar turarjoyi ta'mirlanib, yuzlab maishiy texnika va jihozlar xarid qilindi. Yumshoq jihozlar yangilandi, sport inventarlari olib berildi, oshxona, kutubxona, sartaroshxona va tikuv xonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu esa talabalar uchun munosib turmush sharoiti va ta'lim olish muhitini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

Mazkur sohadagi eng muhim vazifalardan biri korrupsiyaviy omillarni qisqartirish hisoblanadi. Shu maqsadda respublikada

birinchi bo'lib davlat mehnat inspeksiyasi inspektorlarini planshetlar bilan ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarliklarni elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyotining joriy etilishi shaffoflikni ta'minlashga xizmat qildi. Raqamlashtirish inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish jarayonining ochiqqligini ta'minlashda muhim vosita ekani yana bir bor isbotlandi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi ham doimiy e'tiborimiz markazida. Tahlillar asosida mazkur toifadagi 314 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitildi, 347 nafar doimiy ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, 659 nafar nogironligi bo'lgan shaxs reabilitatsiya texnik vositalari, 244 nafar esa protez-ortopediya moslamalari bilan ta'minlandi. Bu ishlar nafaqat ijtimoiy himoyani kuchaytirish, balki ushbu toifadagi fuqarolarning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan raqamlashtirish ishlari ham o'z samarasini bermoqda. Xususan, tibbiyot muassasalarida pullik xizmatlar hajmi bir yil ichida 20,5 foizga o'sib, 97,7 milliard so'mni tashkil etdi. Bu avvalo, xizmatlarning shaffoqlashgani, hisob-kitob tizimining takomillashtirish va moliyaviy intizomning mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Yoshlar masalasi prokuratura nazoratidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Turli profilaktik tadbirlar, ijtimoiy va huquqiy choralar natijasida og'ir toifaga

kiritilgan 4 341 nafar yoshning sog'lom hayotga qaytarilishi jamiyat kelajagiga qaratilgan muhim sarmoyadir.

Qonun ustuvorligini ta'minlash sohasidagi raqamlar ham salmoqli. O'tgan davr mobaynida qariyb 600 ta nazorat tadbiri o'tkazilib, 2481 ta protest, 1169 ta taqdimnoma kiritildi. Natijada minglab mansabdor shaxslar intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortildi, yuzlab mas'ullar rasman ogohlantirildi. Eng muhimi, 13 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklandi, milliardlab so'mlik zarar qoplandi hamda qo'pol qonunbuzilishlar yuzasidan 265 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi. Bu raqamlar prokuratura nazoratining faqat jazolash emas, balki huquqlarni tiklashga qaratilganini ko'rsatadi.

KORRUPSIYAGA QARSHI

KURASHISHDA YANGI YONDASHUV

Bu yo'nalishda davlat organlari uchun maxsus "Yo'l xaritasi" qabul qilinib, korrupsiyaviy xavflarni tahlil qiluvchi shtab tashkil etildi. Har oy muayyan sohada korrupsiyaviy holatlarni tanqidiy muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu ishlar natijasida yuzlab xodimlarga intizomiy choralar ko'rildi, rotatsiya amalga oshirildi va qonunbuzilishlarga yo'l qo'yg'an ayrim xodimlar bilan mehnat shartnomalari bekor qilindi.

Eng muhimi, korrupsiyaga qarshi kurashish jazo bilan cheklanib qolmadi. Profilaktikaga ustuvor ahamiyat berildi. Xorijiy ilg'or tajriba asosida prokuratura, sud, ichki ishlar va adliya organlari xodimlari maktab-larga birlashtirilib, "Kelajak soatlari" doirasida o'quvchilarga halollik, vatanparvarlik va qonunga hurmat bo'yicha darslar o'tilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda davlat xizmatchilari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga doir maxsus o'quv qo'llanmalari asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Yetti ming nafar davlat xizmatchisining virtual akademiyada

malaka oshirgani mazkur yo'nalishda bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish orqali korrupsiya xavfini kamaytirish choralarini amaliy samara berdi. Jamoat transporti, avtoturargohlar, jarima maydonchalari va bozorlarda to'lovlarining naqdsiz shakliga o'tkazilishi inson omilini keskin qisqartirib, moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ishlar ham e'tiborga loyiq. "Muruvvat" internet uylari hamda "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" markazlarida yashovchi nogironligi bo'lgan shaxslar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, zarur jarrohlik amaliyotlari o'tkazish, reabilitatsiya vositalari va zamonaviy davolash uskunalarini bilan ta'minlash choralarini ko'rildi. Maxsus sport maydonchalarining tashkil etilishi esa ularning jismoniy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida viloyatda kambag'allik darajasi bir yil davomida 7,5 foizdan 3,5 foizgacha pasaydi. Bu raqam ortida minglab oilalarning turmush darajasi yaxshilangani, yangi ish o'rinlari yaratilgani va ijtimoiy himoya mexanizmlari samaradorligi oshgani mujassam.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlarining ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorati bugun nafaqat qonunbuzilishlarni aniqlash, balki davlat boshqaruvini takomillashtirish, korrupsiyaning oldini olish, raqamlashtirishni kengaytirish va inson manfaatlarini ta'minlashning muhim mexanizmiga aylanmoqda. Erishilgan natijalar qonun ustuvorligi ta'minlangan joyda adolat qaror topishi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishi va aholi farovonligi yuksalishining yana bir amaliy isbotidir.

Murodqosim ESHNAZAROV,
viloyat prokurori.



Chelakda ko'p qavatli uylar ko'p

ularda aholining sifatli yashashini ta'minlash zarur

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi turar-joylar, zamonaviy infratuzilimga ega ko'p qavatli uylar barpo etilib, yuzlab oilalar yangi xonadonlarga ega bo'lmoqda. Bu esa aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shaharsozlik madaniyatini yuksaltirish va turmush darajasini yaxshilash yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Ko'p qavatli uylarning ko'payishi bilan ularda yashovchilar uchun munosib va xavfsiz yashash muhitini yaratish eng dolzarb masaladir. "Bunyodkor ahil oila servis" boshqaruv kompaniyasi Payariq tumanidagi Chelak shaharchasida joylashgan 14 ta ko'p qavatli uyga servis xizmati ko'rsatib keladi. Kompaniyaning san-texnik-elektrik, bog'bon va farrosh kabi 7 nafar ish-chisi uylarning ekspluatatsiyasi, texnik holati, kommunal xizmatlar sifati, hovilalar obodligini ta'minlaydi.

Ko'p qavatli uylarning hududlari doimo ozoda va tartibli bo'lishi kerak, - deydi 6-uyda yashovchi Farrux Umarov. - Ayniqsa, kirish yo'laklari, zinapoya, yer-to'la, tom qismi va muhandislik kommunikatsiyalari muntazam ko'zdan kechirib turilmasa, zarur hollar-da ta'mirlanmasa, aholining noroziligi olib keladi. Ba'zi hollarda suvoqova tarmoqlari yaxshi ishlama-ganligi yoki aholi tomonidan tashlangan turli chiqin-dilar sabab yerto'lalarga suv kiradi. Mana hozir ham shunaga holat, butun atrofga badbo'y hid tarqalgan-ligidan kanalizatsiya yaxshi ishlamayotgani ko'rinadi. Xo'sh, bu holatda servis kompaniyasi vakillari qanday ish tutadi?

Hududimizda zamonaviy, energotejamkor suv-oqova tizimi bor, - deydi "Bunyodkor ahil oila servis" boshqaruv kompaniyasi raisi Qayum Abdurazzoqov. - Lekin ayrim xonadon bekalarining oqovo tar-mog'iga qog'oz, mato, bolalar tagliklariga o'xshash turli maishiy chiqindilar tashlashi kuzatiladi. Bu esa butun uyning oqovasisga salbiy ta'sir qiladi. Bunday hollarda "Toza hudud" davlat unitar korxonasining tuman bo'limiga murojaat qilib, ulardan maxsus mashinalarni so'rab olamiz. To'g'ri, ba'zida ularning ham yumushlari ko'payib ikki kungacha kelolmay qolgan paytlari ham bo'ladi. Tozalangach, badbo'y hid baribir 1-2 kun saqlanib qoladi.

Mahalla hududida uchta chiqindixona bo'lib, "Toza hudud" DUK mashinalari shartnoma asosida haftasiga ikki marta kelib olib ketishadi.

Mahallada ham bolalar uchun o'yin va sport maydon-chasining tashkil etilishi nafaqat aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etadi, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ko'ka-lamzorlashtirish ishlarini kengaytirish, daraxt va gullar ekish, sug'orish tizimini yaxshilash orqali ekologik muhitni yanada sog'lomlashtirish mumkin. Boshqaruv servis kom-paniyasi erta bahordan "Yashil makon" umumilliy loyihasi asosida 50 dan ziyod manzarali daraxt ko'chatlari, yuzdan

ziyod gul butalari ekan. Ho-zirda ularning qariyb 80 foizi undirib olindi.

- Mahallada maxsus avto-turargoh bo'lmasa-da, mav-jud imkoniyatlardan samarali foydalanyapmiz, - deydi Qayum Abdurazzoqov. - Deyarli har bir xonadonda avtomashina bor. Agar birorta xonadonda to'y yoki ma'raka bo'lib qolsa, mashinalar-ni qo'yishga joy topilmaydi. Shu sababli butun mahalla bo'ylab vid-eokuzatuv kameralari o'rnatganimiz, tashqi yoritish tizimlari yaxshi ishlashi turli noxush holatlarning oldini olishga yordam bermoqda. Yong'in xavfsizligi talablariga ham qat'iy rioya qilgan holda aholi o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlari olib boriladi. Shuningdek, har bir xonadonda yuqori tezlikdagi internet tar-mog'i, sifatli mobil aloqa, elektron xizmat-lardan foydalanish imkoniyati bor.

Ko'p qavatli uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Boshqaruv tashkilotlari faqatgina xizmat ko'rsatuvchi emas, balki aholi bilan doimiy muloqotda bo'ladigan, ularning muammolarini tezkor hal etadigan tizimga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, aholining o'zi ham umumiy mulkka nisbatan mas'uliyatli muno-sabatda bo'lishi lozim. Kirish yo'laklari, bolalar maydonchalari va hovilarni asrash har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Chunki ozoda va tartibli muhit faqat mas'ul tashkilotlar emas, balki ko'p xonadonli uylarda yashovchilarning hamjihatligi va faolligi bilan yaratiladi.

Mutasaddi tashkilotlar, mahalla faollari va aholi o'rtasidagi hamkorlik qanchalik kuchli bo'lsa, ko'p qavatli uylardagi yashash muhiti ham shunchalik sifatli bo'ladi. Muammolarni o'z vaqtida aniqlash, aholi takliflarini inobatga olish va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish orqali ko'plab masalalarni ijobiy hal etish mumkin.

- Mahallamizda muammolar ham yetarli, - dey-di Aziz Jamolov. - Novvoyxona, gilam yuvish sexi, avtomashina ta'mirlash va yuvish shoxobchalariga ehtiyojimiz bor. Sartaroshxona, poyabzal va mobil aloqa vositalarini sozlash ustaxonalari yetishmaydi. Shu uylarda yashovchilar orasida tadbirkorlar ham, ustalar ham topiladi. Faqat ular uchun joy topish masalasi muammo bo'lmoqda.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Tamaddixonalarda sigareta chekish uchun joylar noto'g'ri belgilangan

Bojxonada maxsus surishtiruv xonasi ochildi

Viloyat bojxona boshqarmasida zamonaviy talablar asosida jihozlan-gan maxsus surishtiruv xonasi tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi raisi o'rinbosari Otabek Choriyev, qo'mitaning surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi boshlig'i Akromjon Axlimirzayev ishtirok etib, maxsus xona imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerda so'roq qilish, yuzlashtirish, shaxsni tanib olish, shuningdek, videokon-ferensaloqa orqali masofaviy tergov harakatlarini amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'kidlanganidek, yangi tashkil etilgan maxsus surishtiruv xonasi jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaa-tlarini ta'minlash, tergovga qadar tekshiruv hamda surishtiruv ishlarining sifati va shaffofligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tanishuv chog'ida viloyat bojxona boshqarmasining huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasida joriy yilning olti oyidagi natijalariga ham e'tibor qaratiladi. Qayd etilishicha, hisobot davrida 926 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, qariyb 39 milliard so'mlik noqonuniy tovarlar ushlab qolingan. E'tiborlisi, huquqbuzarliklar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 218 taga kamaygan bo'lsa-da, ushlab qolingan tovarlarning umumiy qiymati 19 milliard 350 million so'mga oshgan. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi-ni ta'minlash, kontrabanda va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan bir guruh xodimlarga Bojxona qo'mitasining tashakkurnomasi topshirildi.

Tadbir doirasida yana bir muhim yangilik sifatida Samarqand shahri markazida Bojxona qo'mitasi ruxsati asosida "Bojxona-servis" dav-lat muassasasi viloyat bo'limi tomonidan litsenziya asosida zargarlik buyumlari hamda qimmatbaho toshlardan tayyorlangan buyumlarni sotishga ixtisoslashgan savdo rastasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Tahillari so'nggi yillarda zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni ortib borayotgani-ni ko'rsatmoqda. Joriy yilning olti oyida ushbu yo'nalishda 64 ta holat fosh etilib, umumiy qiymati 3,7 milliard so'mlik, og'irligi 5 kilogramm 410 gramm bo'lgan 133 nomdagi zargarlik buyumlari ashyoviy dalil sifatida rasmiylashtirildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aniqlangan holatlar soni, musodara qilingan buyumlarning qiymati va og'irligi sezilarli darajada oshgan bo'lib, xususan, musodara qilingan zargar-lik buyumlarining umumiy og'irligi 2 kilogramm 208 gramga ko'paygani mazkur yo'nalishdagi nazorat tadbirlarining sa-maradorligi yanada oshganidan dalolat beradi.

Viloyat bojxona boshqarmasi axborot xizmati.



«CHEKMA, O'LDIRADI!..»

Hayotim davomida bir marta ham sigareta va nos chekmaganman. Ularning foydasini yoxud ta'mini ham bilmayman. Lekin bu mahsulotlarning inson organizmiga yetkazadigan zarari haqida ko'p o'qiganman.

Sigareta tutuni va boshqa tamaki mahsulotlari tarkibidagi o'ta zararli moddalar inson organizmiga juda katta ziyon yetkazadi. Shu bois dunyo davlat-larining deyarli barchasida bu illatga qarshi tizimli kurash olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham 2023-yil, 24-mayda «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, sigareta va tamaki mahsulotlarini jamoat joylarida, avtotransport vosi-talarida, ta'lim muassasalarida chekish taqiqlandi. Ushbu tartibni buzgan shaxslar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 56(1)-moddasida nazarda tutilgan bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida jarima solinishi belgilandi.

Sigareta qutilarida rangli tasvirda sigareta cheki-lishi oqibatida kelib chiqadigan og'ir xastaliklar aks ettirilib, «Chekma, o'ldiradi!», «Ko'r qiladi», «O'pka raki», «Bepushtlik» kabi ogohlantiruvchi eslatma-lar bayon qilinmoqda. Qonun hujjatlari bilan tamaki mahsulotlarini sotish tartibi anchagina o'zgartirildi, ularning reklamasini man qilindi.

Ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in



chiqish xavfi katta bo'lgan hududlarda va boshqa jamoat joylarida sigareta chekish taqiqlanganligi haqidagi eslatmalarni joylashtirish talabi qo'yildi.

Qonunning 7-moddasi bilan davlat organlari, fuqa-rolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining bosh-qqa institutlari, ta'lim tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'sirini profilaktika qilish, jamoatchilik ongida tamaki mahsulotini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakl-lantirish bo'yicha kompleks ijtimoiy va tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

Xo'sh, ushbu talablar viloyatimizda qanday bajaril-moqda? Aksariyat restoran va oshxonalarida bunday eslatmalarga ko'z tushmaydi. Buning ustiga-ustak ayrim tamaddixonalarda sigareta chekish uchun joylar noto'g'ri belgilangan. Xususan, Samarqand shahri markazidagi «Samarqand» restoranida mi-

► Dolzarb mavzu

jozlarning kirib kelish va kutib olish hududi (yopiq bino) shunday manzil sifatida ajratilgan. Natijada bu yerda cheklayotgan sigareta hididan restoranga kirib kelayotgan iste'molchilar, ayniqsa, xotin-qizlar, homilador ayollar va yosh bolalar nafas olib, tamaddi zallariga o'tib-qaytadilar.

Ayrim oshxonalarida xizmat qilayotgan xodimlar bu yerda tamaki mahsulotlarini chekish mumkin emasligi haqidagi qonun talablarini ham bilmaydilar. Yaqinda Past Darg'om tumanida joylashgan «Chuqur osh» osh markazining yopiq binosida tamaddi qilayotgan mijoz xizmat ko'rsatayotgan girgittondan «Chekish mumkin-mi?» deb so'raganida «Ha mumkin, bimalol chekave-ring», deya javob qaytarganligining guvohi bo'ldik. Shu payt girgitton yigitga «Qonun bo'yicha chekish mumkin emas», deya bildirgan e'tirozimga yelkalarini qisdi-da, qochib qoldi.

Shahrimizning barcha oliy o'quv yurtlari binolari oldida tanaffus paytlari yuzlab talablar sigareta che-kib turganligini ko'ramiz. Ba'zi umumta'lim maktablari o'quvchilari tanaffus vaqti binodan tashqariga chiqib, dam olib turgan paytlari yoki darslar tugagach, uy-lariga qaytayotganlarida bu yerdagi yo'laklardan o'tib qaytayotgan katta yoshdagi piyodalar sigareta che-kib boradi. Ular bu holati bilan o'quvchilarga sigareta chekish bo'yicha «namuna» bo'lmoqda...

Hali bironta maktab binosi atrofida «Bu yer maktab hududi. Tamaki mahsulotlarini chekish mumkin emas!» mazmunidagi eslatmani ko'rganim yo'q. Balki shunday yozuvlarni o'rnatish vaqti yetib kelgandir...

Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson salo-matligiga katta putur yetkazadi, turli og'ir kasalliklar-ni keltirib chiqaradi. Ular ichida eng xavfli saraton xastaligidir. Ushbu dardga chalinganlarni tibbiyot muassasalarida davolash ancha uzoq va og'ir kechadi. Afsuski, aksariyat holatlarda bemor hayoti o'lim bilan tugaydi. Shunday ekan, keling, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilmaylik, buning o'rniiga sport bilan shug'ul-lanib, sog'lom turmush yuritaylik! Bunday hayot bizni, farzand nabiralirimizni, qolaversa, butun jamiyatimiz a'zolarini baxtiyor qiladi.

Yo'ldosh SUYUNOV,
«Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni sohibi.

Xizmat jarayonida turli taqdirlar bilan yuzma-yuz kelamiz. Ularning aksariyatida bir haqiqat o'z tasdig'ini topadi, hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi: insonni bu yo'lga ko'pincha bir lahzalik ehtiros, sabrsizlik, huquqiy bilimning yetishmasligi, nosog'lom muhit yoki noto'g'ri tanlov boshlab boradi. Afsuski, o'sha birgina xato ba'zan yillar davomidagi armon va pushaymonga aylanadi.

Jinoyatning oldini olish

inson qalbini asrashdan boshlanadi



Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazo bilan emas, avvalo, uning oldini olish, inson qalbi va ongini asrash bilan samara beradi. Zero, tarbiya ustuvor bo'lgan jamiyatda jinoyat kamayadi, ma'naviyat yuksalgan muhit-da esa qonunga hurmat mustahkamlanadi.

Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda inson qadriini yuksaltirish, huquqbuzarliklar-ning barvaqt oldini olish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy ong va ma'naviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ish-lar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lib, mahkumlarning qayta tarbi-yanalishi va jamiyatga munosib inson sifatida qaytishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

«Xavfsiz va sog'lom yurt» oyiligi doirasida viloyatimizdagi uchinchi mintaqaviy hudud-ga qarashli muassasamiz hamda shartnoma ob'ektlarida mehnat qilayotgan mahkumlar bilan o'tkazib kelinayotgan turli mavzulardagi davra suhbatlari ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Suhbatlarda inson taqdirini o'zgartirish uchun ba'zan bitta to'g'ri qarorning o'zi yetarli ekani haqida fikrlar aytiladi. Hayot insonga si-novlarni beradi, ammo bu sinovlar uni sindirish uchun emas, balki toblash uchun berilganini anglash muhimligi ta'kidlanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, mahkumlar-ning aksariyati jazodan emas, balki farzandlari-ning mehridan uzoqda qolganidan, ota-onasi-ning ishonchini yo'qotganidan, oilasining ko'z yoshidan qattiq iztirob chekadi. Ana shu pu-shaymonlik tuyg'usi inson qalbidagi o'zgarishga bo'lgan ilk qadamni boshlaydi. Shuning uchun tarbiyaviy ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad aybni eslatish emas, balki insonga kelajakka ishonishni o'rgatishdir.

Faoliyatimizda mahkumlarga faqat qonun talablarini emas, balki hayotning qadriini ang-latishga intilamiz. Erkinlikning qadri, halol mehnatning sharaflari, oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi va Vatan olibdagi mas'uliyat haqidagi har bir samimiy suhbat ba'zan yuzlab rasmiy hujjatlardan ham kuchliroq ta'sir qiladi.

Ayniqsa, kitob inson ma'naviyatini qayta tiklaydigan eng qudratli vositalardan biridir. Kitob mutolaasi insonga fikrlashni, kechirishni, sabr qilishni va hayotni boshqacha nigoh bilan ko'rishni o'rgatadi. Shu maqsadda tadbirlari-mizga taklif etilgan mutaxassislar o'zlari bilan olib kelgan badiiy va ma'naviy-ma'rifiy adabi-yotlarini muassasa kutubxonasiga sovg'a qilib ketishi ham an'anaga aylangan.

«Xavfsiz va sog'lom yurt» oyiligi doirasida viloyat IIB probatsiya boshqarmasi, profilak-tika inspektorlari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, «Inson» ijt-i-moiy xizmatlar moslashuv markazlari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, rasmiy diniy tashkilotlar, bank, soliq organlari hamda boshqa hamkor tashkilotlar ishtirokida o'tka-zilayotgan profilaktik tadbirlar ham yagona maqsadga ya'ni, jamiyat tinchligi va fuqarolar farovonligiga xizmat qilib kelmoqda.

Boburshoh ROZIQOV,
37-manzil-koloniyaning tarbiyaviy ishlar bo'linmasi katta inspektori.

Mashaqqatlar ortidan kamolga yetgan umr yoʻli

Inson dunyoga kelar ekan, oʻzidan yaxshi nom, ezgu amallar va el-yurt xizmatiga bagʻishlangan ibratli hayot yoʻlini qoldirishni orzu qiladi. Chunki oʻtgan yillar sarhisobida insonning jamiyat uchun qilgan fidokorona mehnati uning asl qiymatini belgilaydi. Ana shunday xislatlarni hayot mezoniga aylantirgan, el-yurt hurmatiga sazovor boʻlgan nuroniylardan biri Shermon Toʻxtamishevdir.

Bugun u kishi qutlugʻ 75 yoshni qarshilamoqda. Bu yosh mashaqqatli mehnatning mevasi, oilaviy baxt va jamiyat ardogʻida kechayotgan goʻzal fasldir. Sh.Toʻxtamishev 1951-yil 15-iyul kuni Payariq tumanining Xosa mahallasi Chuqur qishlogʻida tavallud topdi. Yoshligidanoq qalbida mehnatsevarlik va masʼuliyat tuygʻulari ildiz otdi. 1974-yilda harbiy xizmatni oʻtab qaytgach, Payariq tumanidagi shifoxonaning dispanser boʻlimida feldsher sifatida ilk ish faoliyatini boshladi. Bu sogʻliqni saqlash sohasidagi katta va sharaflı yoʻlining debochasi edi. 1976-yildan boshlab Jizzax viloyatining Zafarobod tumanida xalq salomatligi yoʻlida sidqidildan xizmat qildi. Oʻn yil davomida bosh feldsher sifatida tunu kun mehnat qildi. U nafaqat tibbiyot, balki hudud infratuzilmasini rivojlantirishda ham faol boʻldi. Xoʻjalik ishlari mudiri, ichimlik suvi taʼminoti korxonalarida

samarali faoliyat yuritdi. Keyinchalik chorvachilik fermasi mudiri, boʻlim briga-diri kabi masʼul lavozimlarda rahbarlik qobiliyatini namoyon etdi. 1990-yildan tumandagi Choʻrosh jamoa xoʻjaligi ambulatoriyasida bosh feldsher, 2009-yildan esa qishloq vrachlik punktida bosh vrach lavozimida ishlab, aholi salomatligini mustahkamlashga hissa koʻshdi.

Shermon aka nafaqat malakali tibbiyot xodimi, balki ibratli oila boshligʻi ham. U umr yoʻldoshi Rohat aya bilan olti farzandni voyaga yetkazdi. Farzandlariga yuksak axloq, halollik va puxta taʼlim-tarbiya berishni hayotining maqsadi deb bildi.

Bu goʻzal tarbiyaning mevasi sifatida oʻgʻil-qizlar yurtimiz oliy taʼlim muassasalari, bank va taʼlim maskanlarida mehnat qilishmoqda. Hamkasblar va mahalla ahli Shermon akani samimiy, bagʻrikeng va adolatparvar inson sifatida qadrlashadi. U kishi nafaqat yaxshi ota va mehribon bobo, balki jamiyatning faol nuroniysi, maslahatgoʻyidir. Ustozni tabarruk 75 yoshi bilan muborakbod etamiz. Mustahkam sogʻliq, uzoq umr, oilaviy xotirjamlik tilaymiz!

Uzoqboy SHODIYEV, Payariq tumanidagi “Choʻrosh” oilaviy poliklinikasi mudiri.



Yonimizdagi odamlar

DAʼVOLAR BOʻLSA! Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Kobilov Davronga (2022-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand shahri Turkiston koʻchasi, 62-uy. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Sharipova Ruziga (1990-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Narzullayev Furqat Mahmatkulovichga (2009-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Rashidova Sanovarga (2012-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasida marhum Latipov Olim Ashurovichga (2018-yil 19-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 36-“A” uy. * * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasida marhum Raxmonova Mayramga (2003-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

merosxoʻrlarning Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bagʻrikenglik koʻchasi, 4-uy. * * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Karshiyev Aktram Xaldarovichga (2026-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy. * * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ergashev Karshiga (2019-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy. * * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Roʻziyevich notarial idorasida marhum Boltayeva Urolga (2023-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qurbonov Azizjon Roʻziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy koʻchasi. * * *

Bulungʻur tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Xujayev Bekzod Ismoilovichga (2008-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Bulungʻur shahri Mustaqillik maydoni. * * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Usmanov Feruz Taxirovichga (2025-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz. Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloil koʻchasi, 117-uy.

“SAM FINANCE POWER” MIKRO MOLIYA TASHKILOTI MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING BALANS HISOBOTI			
2025-yil 31-dekabr holatiga			
KOD	KO’RSATKICHLAR		ming soʻmda
AKTIVLAR			
10	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari		2 853 493
20	Banklarga qo'yilgan depozitlar va boshqa mablag'lar		1 156 072
30	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar		742 876
40	Sotib olingan debitorlik qarzlari - faktoring, brutto	0	
41	Minus: faktoring bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0	
42	Faktoring, sof (40 kod - 41 kod)		0
50	Kreditlar (mikrokredit, mikroqarz, iste'mol) brutto	31 178 151	
51	Minus: kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	2 589 211	
52	Kreditlar, sof (50 kod - 51 kod)		28 588 940
60	Lizing, brutto	0	
61	Minus: lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0	
62	Lizing, sof		0
70	Investitsiyalar, brutto	0	
71	Minus: Investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0	
72	Investitsiyalar, sof		0
80	Asosiy vositalar, sof		645 732
90	Nomoddiy aktivlar, sof		0
100	Boshqa xususiy mulklar	0	
101	a. Minus: Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0	
102	b. Boshqa xususiy mulklar, sof (100 kod-101 kod)		0
110	Boshqa aktivlar		508 331
120	Jami aktivlar (10+20+30+42+52+62+72+80+90+102+110)		34 495 445
MAJBURIYATLAR va KAPITAL MAJBURIYATLAR			
210	To'lanishi lozim bo'lgan kreditlar va qarzlار		30 630 160
220	Lizing bo'yicha majburiyatlar		0
230	Chiqarilgan obligatsiyalar		0
240	To'lanishi lozim bo'lgan foizlar		69 037
250	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliqlar		186 622
260	Muddati uzaytirilgan daromadlar		14 245
270	Boshqa majburiyatlar		16 668
280	Jami majburiyatlar (210+220+230+240+250+260+270)		30 916 732
KAPITAL			
310	Ustav kapitali		2 006 340
311	a. Aksiyalar - oddiy	0	0
312	b. Aksiyalar - imtiyozli	0	0
320	Qo'shilgan kapital		0
330	Zaxira kapitali		165 653
331	a. Umumiy zaxira fondi	165 653	
332	b. Boshqa zaxira va fondlar	0	
340	Taqsimlanmagan foyda		31 401
350	Joriy yil foydasi (zarar)		0
360	Jami kapital (310 + 320 + 330 + 340 + 350)		2 203 394
370	Jami majburiyatlar va kapital (280 + 360)		33 120 127

TA’SISCHILAR DIQQATIGA!	
“ULUG’BEK ICHTB” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilarining umumiy yig’ilishi 2026-yil 10-avgust kuni soat 10:00 da Past Darg’om tumani Balxiyon mahallasi, Balxiyon qishlog’i, Samarqand shohko’chasi, 14-uyda o’tkaziladi.	
Kun tartibidagi masalalar:	
1. Ta’sischilar tomonidan kirim qilingan mablag’lar va mol-mulklar hisobidan jamiyat Nizom fondining ortishi;	
2. Jamiyat direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish masalasini ko’rib chiqish;	
3. Xodimlarni qisqartirish;	
4. Jamiyat ta’sischilari ro’yxatiga o’zgartirish	
kiritish to’g’risida;	
5. 2026-yilda 1960-1961-yillarda qurilgan eski binolarni buzib, yangi binolar qurish va qaytadan rekonstruksiya qilish masalalari to’g’risida;	
6. Vafot etgan ta’sischilarning ulushlari;	
7. Sobiq ta’sischilar qarzdorligini qoplash;	
8. 2026-yil 2-apreldagi dalolatnomaga asosan buzilgan binolarning yaroqli xom-ashyolari kirim-chiqimi;	
9. Yangi qurilgan binolarni davlat kadastr tashkiloti ro’yxatidan o’tkazish;	
10. Jamiyatga tegishli har xil masalalar;	
11. Jamiyat Nizomini qayta ro’yxatdan o’tkazish.	
Jamiyat ma’muriyati.	

“SAM FINANCE POWER” MIKRO MOLIYA TASHKILOTI MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING MOLIYAVIY NATIJALAR TOG’RISIDAGI HISOBOTI		
2025-yil 31-dekabr holatiga		
KOD	KO’RSATKICHLAR	ming soʻmda
1. FOIZLI DAROMADLAR		
110	Banklardagi depozitlar bo'yicha foizli daromadlar	0
120	Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar (mikroqarzlار) bo'yicha foizli daromadlar	14 743 328
130	O'zini o'zi band qilgan shaxslarga berilgan mikrokreditlar bo'yicha foizli daromadlar	0
140	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
150	Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
160	Lizing bo'yicha foizli daromadlar	0
170	Boshqa foizli daromadlar	0
180	Jami foizli daromadlar (110+120+130+140+150+160+170)	14 743 328
2. FOIZLI XARAJATLAR		
210	Jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar	0
220	Banklardan olingan kreditlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlar	6 728 374
230	Boshqa kreditorlarga to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlar	0
240	Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar	0
250	Lizing bo'yicha foizli xarajatlar	0
260	Boshqa foizli xarajatlar	0
270	Jami foizli xarajatlar (210+220+230+240+250+260)	6 728 374
3. KREDIT VA LIZINGLAR BO’YICHA KO’RILISHI MUMKIN BO’LGAN ZARARLARNI BAHOLASHGACHA BO’LGAN SOF FOIZLI DAROMADLAR (180-270)		
310		8 014 954
320	Minus: Kredit va lizinglar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	2 970 702
330	Kredit va lizinglar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zaralar baholangandan so'ng sof foizli daromadlar (310-320)	5 044 252
4. FOIZSIZ DAROMADLAR		
410	Kafolatlar va kafiliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar	0
420	Faktoring xizmatlari bo'yicha olingan daromadlar	0
430	Xizmatlar va boshqa vositachilikdan olingan daromadlar	55
440	Xorijiy valyuta kursi o'zgarishi natijasida olingan foyda	0
450	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	0
460	Boshqa foizsiz daromadlar	1 777 048
470	Jami foizsiz daromadlar (410+420+430+440+450+460)	1 777 103
5. FOIZSIZ XARAJATLAR		
510	Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik xarajatlari	105 299
520	Xorijiy valyuta kursi o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar	0
530	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar	0
540	Boshqa foizsiz xarajatlar	9 231
550	Jami foizsiz xarajatlar (510+520+530+540)	114 530
6. OPERATSION XARAJATLARGACHA SOF FOYDA (330+470-550)		
7. OPERATSION XARAJATLAR		
710	Xodimlar ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1 090 025
720	Ijara va ta'minot xarajatlari	236 192
730	Xizmat safari va transport xarajatlari	33 478
740	Ma'muriy xarajatlar	56 540
750	Reprezentatsiya va xayriya	0
760	Eskirish xarajatlari	126 207
770	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	308 300
780	Jami operatsion xarajatlar (710+720+730+740+750+760+770)	1 850 742
8. KREDIT VA LIZINGLAR BILAN BOG’LIQ BO’LMAGAN KO’RILISHI MUMKIN BO’LGAN ZARARLARNI BAHOLASH		
800		0
9. FOYDA SOLIG’I VA BOSHQA TUZATISHLARGACHA BO’LGAN SOF FOYDA (600-780-800)		
900		4 856 082
	10. Foyda solig'i	
1000	Foyda solig'ini baholash	590 092
11. TUZATISHLARGACHA BO’LGAN FOYDA (900-1000)		
1100		4 265 991
1110	Foydagacha bo'lgan tuzatishlar, sof *	0
12. SOF FOYDA (ZARAR) (1100+1110)		
1200		4 265 991
2026-yil 17-martdagi № 067-shartnomaga asosan o'tkazilgan “AFROSIOYOB AUDIT STANDART” mas’uliyati cheklangan jamiyatining audit tekshiruvı, 2026 yil 1-apreldagi № 044-raqamli auditorlik xulosasiga asosan.		

YOZGI TA'TIL VA OTA-ONA MUAMMOSI

Mulohaza

Yoki vaqt – umr daftari, uni rejalashtirish kerakmi?

Iyun oyining issiq kunlaridan biri. Kechki salqinda choy ustida er-xotin - Mahmud aka va Zuhra opaning suhbatlari uzoq davom etdi. Suhbat mavzusi esa har yili takrorlanadigan, ammo yechimi topilishi qiyin bo‘lgan masala: bolalarning yozgi ta’tili.

- Dadasi, ta’til ham boshlandi. Rostini aytsam, bolamizning vaqtini qanday tashkil qilishni bilmay qoldim, - dedi Zuhra xavotir bilan.

- Nima uchun? - deb so‘radi Mahmud aka.

- Maktab yo‘q. Ertalab kech uyg‘onadi. Telefonda o‘tiradi. Ba‘zan multfilm ko‘radi, ba‘zan o‘yin o‘ynaydi. Kun qanday o‘tib ketganini o‘zlari ham sezmaydi.

- Ha, bu faqat bizning emas, butun mahallaning, balki butun jamiyatning dardi, - dedi Mahmud aka xo‘rsinib.

- Bolalarga «telefonni qo‘y», «kitob o‘qi» deganing bilan foydasi bo‘lmaydi. Chunki ularda aniq bir reja yo‘q.

- To‘g‘ri aytasiz, lekin ularga qanday yordam berishni ham bilmayman. Gohida o‘zimning ham kunim qanday o‘tib, qanday kech bo‘lganini payqamay qolaman. Uy ishlari, ro‘zg‘or, ish...

Aslida vaqtning to‘g‘ri rejalashtirishni avval o‘zimiz o‘rganishimiz kerak, shekilli?!

ILOHIY TARTIBOT ...

Insoniyat yaratilgandan buyon vaqtning tartibga solishga, uni tizimlashga harakat qilib keladi. Biroq eng oliy hakam - Alloh taolo bandalari uchun vaqtning tizimlashirishining eng mukammal modelini joriy qilib qo‘ygan.

Islom dinida vaqt - bu Alloh tomonidan berilgan eng katta omonat. Yaratuvchi zot Qur‘oni Karimda bandasining e’tiborini vaqtning naqadar ulug‘ ne‘mat ekanligiga qaratadi. Shu bois ko‘plab suralar bevosita vaqt nomi bilan boshlanadi yoki unda vaqt bilan qasam ichiladi: «Val-asr» (Asr vaqtiga qasamki), «Val-layl» (Tunga qasamki), «Val-fajr» (Tongga qasamki).

Kun davomida ado etiladigan 5 vaqt namoz - bu shunchaki ibodat emas, balki inson hayotini kunlik rejalashtirishning ilohiy va mukammal dasturidir.

Agar e’tibor bersak, 5 vaqt namozga rioya qilgan insonning kunlik tartibi o‘z-o‘zidan eng mukammal grafikka tushadi. Unda uyqudan turish, ishlash, dam olish va oila bilan bo‘lish vaqtlari tabiiy ravishda tartibga solinadi. Ya’ni, namoz vaqtlari insonni kun davomida bir necha bor to‘xtab, o‘z faoliyatini qayta baholashga undaydi. Xususan, ertalab kunni Allohning zikri bilan boshlash, kun o‘rtasida to‘xtab o‘zini nazorat qilish, kechqurun esa kunni sarhisob qilish inson hayotiga tartib va ma’no bag‘ishlaydi.

NEGA REJALASHTIRMAYMIZ?

Bugungi kunda «vaqtim yo‘q» degan gapni eng ko‘p eshitamiz. Ajablanarlisi shundaki, dunyodagi eng band va eng muvaffaqiyatli odamlarda ham, kun bo‘yi bekor o‘tirgan odamda ham bir xil - 24 soat vaqt bor. Xo‘sh, nega ko‘pchilik o‘z vaqtini rejalashtirishni xohlamaydi yoki buni uddalay olmaydi?

Tahlilarga ko‘ra, ko‘pchilik odamlar, ayniqsa, yoshlar hayotni cheksiz deb o‘ylashadi. «Hali yoshman», «Ulguraman», «Ertaga qilaman» degan fikrlar insonni yalqovlikka undaydi. Bu psixologiyada prokrastinatsiya - ishlarni orqaga surish deb ataladi.

Aniqrog‘i, o‘zini nazorat qilishni, o‘z nafsini jilovlashni istamagan inson rejasiz, oqim bo‘ylab yashashni afzal ko‘radi. Agar insonning hayotda aniq, ulug‘vor va tizimli maqsadi bo‘lmasa, u vaqtning rejalashtirishga ehtiyoj sezmaydi. Qayerga borishini bilmagan kemaga hech qaysi shamol yordam bera olmaganidek, maqsadsiz inson uchun ham vaqtning qadri bo‘lmaydi.

Aslida vaqt - bu insonning kapitali. Biz har soniyada shu kapitaldan sarflab boramiz. Inson tug‘ilgan kundan boshlab uning umr soati teskari qarab sanay boshlaydi. Shu bois vaqtning qiymati va qadrining o‘lchovi yo‘q. Eng qimmatbaho olmos ham vaqt oldida bir siqim tuproqdek gap.

Yo‘qotilgan boylikni mehnat bilan, boy berilgan sog‘liqni davolanish bilan (ma’lum ma’noda) qaytarish mumkindir. Ammo boy berilgan bir soniyani dunyodagi bor oltin-kumushlar bilan ham sotib olib bo‘lmaydi.

TANLOVNI O‘ZIMIZ QILAMIZ

Afsuski, zamonaviy dunyoda «vaqtning o‘ldirish» (time killing) degani ibora paydo bo‘ldi. Bu juda qo‘rqinchli iboradir. Vaqtning o‘ldirish o‘z umrini, kelajagini va oxiratin kuydirish demakdir. Shu sabab mutaxassislar kundalik hayotimizda, xususan, farzandlarimizning ta’til kunlarida vaqtning qanday to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha bir nechta amaliy tavsiyalarni bayon qilishgan.

Xususan, ishlarni 4 ta toifaga bo‘lib chiqish kerak:

- Muhim va shoshilinch ishlar (tezda bajarilishi shart).
- Muhim, lekin shoshilinch emas (insonni rivojlantiradigan, kelajakka xizmat qiladigan asosiy qism — kitob o‘qish, til o‘rganish, sport).
- Shoshilinch, lekin muhim emas (ahamiyatsiz qo‘ng‘iroqlar, kutilmagan mehmonlar).
- Muhim ham emas, shoshilinch ham emas (vaqt o‘g‘irlari: ijtimoiy tarmoqlar, televizor, bekorchi suhbatlar).

Eng noxush, eng qiyin va eng ko‘p kuch talab qiladigan ishni ertalab, kunning birinchi yarmida bajarib oling. Shunda kunning qolgan qismi yengil va xotirjam o‘tadi.

Maqola avvalidagi Zuhra va Mahmud akaning muammosiga qaytadigan bo‘lsak, avvalo, ilm va ruhiyat tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda kuniga kamida 1-2 soat kitob o‘qish, xorijiy til yoki aniq fanlarni o‘rganish, diniy-ma’naviy suhbatlar o‘tkazish kerak.

Sport to‘g‘raklari, uy ishlarida ota-onaga ko‘maklashish bolaning jismoniy chiniqishiga, oila a’zolariga mehribon bo‘lib o‘sishiga xizmat qiladi. Albatta, vaqtning to‘g‘ri taqsimlash bu dam olishsiz kun o‘tkazish degani emas. Shu bois foydali hujjatli filmlar ko‘rish, rasm chizish, oilaviy sayohatlar ham rejaning bir qismiga kiradi.

Farzandlarimizga bera oladigan eng katta merosimiz ularga pul yoki mol-mulk qoldirish emas, balki ularga vaqtning, umrni qadrlashni va uni to‘g‘ri rejalashtirishni o‘rgatishimizdir. Shundagina ta’tillar ham, ish kunlari ham hayotimizning eng go‘zal va mazmunli sahifalariga aylanadi.

Y.MARQAYEV



Viloyatimizda ommaviy sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, iqtidorli sportchilarni terma jamoalarga etkazib berish hamda sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i Jasur Nurmonovning ta’kidlashicha, shu yilning o‘tgan davrida viloyatda 19 ming 580 dan ortiq ommaviy sport tadbirlari tashkil etilib, 1 million 249 ming nafardan ziyod aholi jalb qilingan. Ayniqsa, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida mahallalarda o‘tkazilayotgan musobaqalar yoshlarni sportga keng jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxmat, shashka, vorkaut, stritbol, mas-restling, armrestling, tosh ko‘tarish, arqon tortish, kurash, voleybol, yengil atletika, gandbol, gimnastika, mini futbol va futbol sport turlari bo‘yicha o‘tkazilgan 14 ming 778 musobaqada 676 ming nafardan ortiq yoshlar ishtirok etgan. Shu bilan birga, "Mahalla ligasi" musobaqalari orqali 30 yoshdan yuqori aholining ham sportga qiziqishi ortmoqda. Mavsum boshidan buyon o‘tkazilgan 628 ta liga musobaqasida 65 ming nafar fuqaro qatnashgan.

- Prezidentimizning aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishga doir qarori asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda, - deydi Jasur Nurmonov. - Viloyatdagi 1267 ta umumta’lim maktabida tahsil olayotgan o‘quvchilar sport sinovlarida ishtirok etdi. Ixtiyoriy va maxsus sport sinovlarida yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar ko‘krak nishoni, guvohnoma va sport anjomlari bilan taqdirlandi. Ikkinchi bosqichda oliy ta’lim muassasalari talabalari ham ushbu jarayonda faol qatnashmoqda. Shuningdek, keyingi bosqichlarda 30 yoshdan 70 yoshgacha va undan katta yoshdagi shaxslardan hamda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan murakkablik darajasini hisobga olgan holda ixtiyoriy va maxsus talablar asosida sport sinovlari olinadi.

Samarqand nafaqat respublika, balki xalqaro sport markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida viloyatimiz to‘rtta yirik xalqaro musobaqaga mezbonlik qildi. Voleybol bo‘yicha Markaziy Osiyo chempionati, bilyard bo‘yicha jahon chempionati, "Silk Road – Samarqand" xalqaro marafoni hamda triatlon bo‘yicha jahon seriyasi bosqichlari yuqori

Los-Anjeles olimpiadasida Samarqanddan 60 nafar sportchi ishtirok etishi kutilmoqda



saviyada tashkil etildi. Yil yakuniga qadar yana bir qator nufuzli musobaqalar o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Jumladan, triatlon bo‘yicha "Challenge Samarqand – 2026" musobaqasi, 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi, "Samarqand Marathon" xalqaro xayriya marafoni, mas-restling bo‘yicha Osiyo chempionati hamda sambo bo‘yicha jahon chempionati o‘tkaziladi.

- Sportchilarimiz erishayotgan natijalar bo‘yicha respublikada yetakchi o‘rinlarda, - deydi J.Nurmonov. - Shu yilning o‘tgan davrida ular respublika va xalqaro maydonlarda 1287 ta medalni qo‘lga kiritdi. Shundan 431 tasi oltin, 416 tasi kumush va 440 tasi bronza medallari. Ayni paytda sportchilarimiz o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida bo‘lib, 2028-yilda AQShning Los-Anjeles shahrida bo‘lib o‘tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari hamda xalqaro va respublika chempionatlariga tayyorgarlik ko‘rmqda. Jumladan, viloyatimizdan 60 nafar sportchi Olimpiya va Paralimpiya litsenziyalarni qo‘lga kiritish uchun harakat qilmoqda. Ular Olimpiyaning 12 ta va Paralimpiyaning 10 ta sport turi bo‘yicha mamlakatimiz sharafini himoya qiladi. Bundan tashqari, shu yilning avgust-dekabr oylarida oldimizda yana bir qator yirik musobaqalar turibdi. Qozog‘istonda "Games of the Future", Yaponiyada XX yozgi Osiyo va Paraosiy o‘yinlari, Senegalda Yoshlar Olimpiya o‘yinlari hamda Saudiya Arabistonida Osiyo yopiq inshootlarida jang san’atlari o‘yinlari bo‘lib o‘tadi. Ushbu musobaqalarda yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar Los-Anjelesda bo‘lib o‘tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga reyting ochkolarini yaxshilab oladi.

F.RO‘ZIBOYEV.

Xalqimizda "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", degan naql bor. Insonni yuksaklikka ko‘taradigan, uning hayot yo‘llarini yoritadigan eng yorqin mayoq – bu ilm. Bugungi yoshlarning ilm izlab, oliy ta’lim sari intilishlari zamidida ham ulkan maqsadlar yotadi.

Ular kelajakda jamiyatning ajralmas, koriga yaraydigan vakili bo‘lishni, ota-onalari oldidagi farzandlik burchlarini sadoqat bilan bajarishni istashadi. Yelkaga oila tashvishi tushganda, ota-onani zo‘riqtirmaslik va kelajakda o‘z farzandlariga ham munosib tarbiya hamda bilim berish niyati har bir yoshni tinimsiz o‘qishga, intilishga undaydi. Zero, har bir insonning oldiga qo‘ygan oliy maqsadiga erishtiruvchi eng to‘g‘ri va ishonchli yo‘l aynan ilmdir. Biroq maqsad sari eltuvchi bu yo‘l hamisha tekis va ravon bo‘lavermaydi. Sharq donishmandlari "Zahmat chekmasang, rohat ko‘rmassan" yoki "Ilm igna bilan quduq qazishdir" deb bejiz aytishmagan. Abituriyentalar universitet onasidan hatlab o‘tgunlariga qadar ulkan ruhiy va jismoniy sinovlarni boshdan kechiradilar. O‘qishga kirishdan oldingi mashaqqatli tayyorgarlik jarayoni, surunkali uyqusizlik va tinimsiz ruhiy toliqish (fanda buni Academic Burnout - akademik vujudning qurishi deyiladi) ularni anchagina charchatib qo‘yadi.

Talabalik sari: imtihon ortidagi "yashirin" SINOV



OTA-ONA BOSIMI VA "HAYOT-MAMOT" SINDROMI

Ushbu charchoq va tushkunlikning eng asosiy sabablaridan biri, afsuski, yaqinlar va ota-ona tomonidan bo‘ladigan bilvosita ruhiy bosimdir. Ko‘plab yoshlar oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonini hayotning oxirgi chorrahasi, deb o‘ylashadi. "Agar yiqilsam, ota-onamning yuziga qanday qarayman? Menga va repetitorlarimga sarflangan pullarni, oilamning ishonchini oqlay olmasam-chi?" degan qo‘rquvlar ruhiy bosimni ikki hissa oshiradi. G‘arblik psixologlar imtihon vahimasi deb atashadi. Ushbu ijtimoiy andisha va andishadan tug‘ilgan qo‘rquv sababli, testga kirishdan oldin ko‘plab o‘g‘il-qizlarning qon bosimi oshib ketishi, yurak urishi tezlashishi yoki hushini y o‘qotishi aynan o‘sha yashirin depressiyaning eng yuqori nuqtasidir.

RAQAMLAR NIMA DEYDI?

Bu shunchaki oddiy gaplar emas. Dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar ham buni tasdiqlamoqda. Statistik ma'lumotlarga

ko‘ra, imtihonoldi tayyorgarlik davrida abituriyentalarning qariyb 48 foizi og‘ir stress va depressiyaning boshdan kechiradi. Yillik so‘rovnomalarda abituriyentalarning 59 foizi savollarning murakkabligi va mas’uliyat yukidan doimiy vahima ichida yashashini aytgan. "Hayot-mamot" darajasiga chiqadigan bunday kuchli ruhiy bosim yoshlarni imtihon oldidan butunlay holdan toydiradi.

Muvaffaqiyatli talabalik baxtiga erishgandan keyin ham yoshlar harakatdan to‘xtamaydilar. Biroq oliygoahlar ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishlari lozim. Bugungi kunda universitetlar nafaqat yoshlarning bilimini sinaydigan yoki ularga diplom beradigan maskan, balki testoldi depressiyalaridan jarohat olgan qalblarga ruhiy dalda bo‘la oladigan, ularga har tomonlama ko‘maklashadigan va yangi hayotga moslashishga yordam beradigan g‘amxo‘r tizimga aylanishi zarur. Zero, sog‘lom jamiyatni faqat bilimi bilan birga ruhiyati ham baquvvat bo‘lgan yoshlarga barpo eta oladilar.

Rayhona QARSHIBOYEVA, Termiz davlat universiteti talabasi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 331 nusxada chop etildi. Buyurtma 268. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda